



**ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ УРГАНЧ ФИЛИАЛИ
ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИ ТИББИЁТ ЖУРНАЛИ
1-ТОМ, 2-СОҢ. 2025**

UDK 616.314-083(470.40)

**FERTIL YOSHDAGI AYOLLARDA PARODONT KASALLIKLAR TARQALISHINING
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**QURIAZOV A.K., QURIAZOV SH.A., ATAJANOVA M.M., ERKINOVA S.A.
YUSUPOVA.D.M.**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI

r.karimov.86@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0009-0325-2709>

Annotatsiya: Fertil yoshdagi ayollarda parodont kasalliklarini aniqlash, stomatologik salomatlikni baholash, ushbu patologik holatlarning uchrash darajasini aniqlash asosida, ularning asoratlari, davolash va profilaktikasiga yangicha yondoshgan holda davolash-profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga egadir.

Kalit so'zlar: fertil yoshdagi ayollar, parodont kasalliklari, klinik va profilaktik.

**ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАСПРОСТРАНЕНИЯ ЗАБОЛЕВАНИЙ
ПАРОДОНТА У ЖЕНЩИН ФЕРТИЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

**КУРЯЗОВ А.К., КУРЯЗОВ Ш.А., АТАЖОНОВА М.М., ЭРКИНОВА С.А.
ЮСУПОВА.Д.М.**

УРГЕНЧСКИЙ ФИЛИАЛ ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

r.karimov.86@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0009-0325-2709>

Аннотация: Женщинам фертильного возраста на основе выявления заболеваний пародонта, оценки состояния зубов, определения степени встречаемости этих патологических состояний важно разработать лечебно-профилактические мероприятия и практиковать среди них новый подход к распространенности стоматологических заболеваний, их осложнениям, лечению и профилактике.

Ключевые слова: женщины фертильного возраста, клинико-профилактические заболевания пародонта.

**DISTINCTIVE FEATURES OF THE SPREAD OF PERIODONTAL DISEASES IN
WOMEN OF FERTILE AGE**

**KURIAZOV A.K., KURIAZOV SH.A., ATAJANOVA M.M., ERKINOVA S.A.
YUSUPOVA.D.M.**

URGANCH BRANCH OF TASHKENT MEDICAL ACADEMY

r.karimov.86@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0009-0325-2709>

Abstract: For women of fertile age, based on the detection of periodontal diseases, assessment of the condition of teeth, determination of the degree of occurrence of these pathological conditions, it is important to develop therapeutic and preventive measures and practice among them a new approach to the prevalence of dental diseases, their complications, treatment and prevention.

Keywords: women of fertile age, clinical and preventive periodontal diseases.

Мавзунинг долзарблиги: Fertil yoshdagi ayollarning turar joyiga bog'liq holda qiyosiy o'rganish, ularga ko'rsatilayotgan parodont kasalliklari tarqalishini baholash, ushbu mutaxassislariga



ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ УРГАНЧ ФИЛИАЛИ
ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИ ТИББИЁТ ЖУРНАЛИ
1-ТОМ, 2-СОН. 2025

bo'lgan ehtiyojni qishloq sharoitiga mos aniqlash muhim bo'lib, klinik va profilaktik stomatologiya bilan bir qatorda ekologik stomatologiya yo'nalishini rivojlantirish dolzarb muammolardan biridir. Parodont kasalliklari Yer yuzi aholisi orasida keng tarqalgan. Oxirgi yillarda dunyoning turli mintaqalarida aholi orasida tish kariesi va parodont kasalligining ortib borishi haqida ko'plab yetarli tadqiqotlar o'tkazilgan [1,3,5,7,9,11]. Ushbu tadqiqotlar yaqqol amaliy yo'nalishga ega bo'lib, sekin-asta stomatologik xizmatni takomillashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Parodont kasalliklari bilan shikastlanish xususiyatini yorituvchi yetarlicha ko'p miqdordagi ma'lumotlar keltirilgan. Ular dunyoning turli mintaqalaridagi stomatologik kasalliklarning yuqori chastotasidan darak beradi [2,4,6]. Parodont kasalliklarining keng tarqalganligi aniqlangan. Aniq bo'lishicha, bu holat yosh o'tgan sari ortib boradi va turli shaharlar kesimida farqlanadi [8,10]. Mualliflar tomonidan shuni isbotlab berilgan: karies bilan shikastlanish intensivligi erkaklarga nisbatan ayollarda ko'proq ifodalanadi. Parodont kasalliklari bilan kasallanish ko'rsatkichlarining ichimlik suvi, tuproq va oziq-ovqat mahsulotlaridagi mikroelementlar tarkibi bilan bog'liqligi o'rganilgan [12,14].

Parodont kasalliklari bilan kasallanish ko'rsatkichlari orasida o'zaro bog'liqlik mavjudligi haqida ma'lumotlar mavjud. Stomatologik kasalliklar tarqalishining mintaqaviy va tibbiy-geografik xususiyatlari aniqlangan. Jumladan, isbotlangan: joyning geografik kengligi shu yerda yashovchi aholining tish kariesi bilan bog'liq ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi. Shimolda (Yevropaning shimoliy qismi, Shimoliy Amerikada) karies bilan kasallanish ko'rsatkichlari yuqori bo'lsa, Janubi-Sharqqa qarab (Afrikaning tropik va ekvatorial zonasi, Janubi-Sharqiy Osiyoning ekvatorial zonasi va Tinch okeani orollari — yirik shaharlardan tashqari) bu ko'rsatkichlar pasayib boradi [13,15]. Parodont kasalliklari MDH davlatlarida ham bir xil tarqalmagan. Aniqlanishicha, shaharda yashovchi aholi orasida tish kariesi tarqalganligi va intensivligi ko'rsatkichlari qishloq aholisiga nisbatan ancha yuqori. Tadqiqotlar davomida ichimlik suvini sun'iy ftorlash orqali amalga oshirilgan profilaktik chora-tadbirlarning samaradorligi ko'rsatib berilgan [14,16].

Parodont kasalliklari tish kariesi kabi juda keng tarqalgan bo'lib, JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha kattalar aholisining 95 foizida parodont kasalliklarining kamida biror belgisi mavjud. Barcha parodont kasalliklarining 90–95 foizini gingivit va parodontit tashkil qiladi [17,18]. Parodont kasalliklari dunyoning turli mamlakatlarida yashovchi katta yoshli aholida keng tarqalganligini aks ettiruvchi epidemiologik materiallar ko'plab tadqiqotchilar maqolalarida keltirilgan. Ular tomonidan to'plangan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dunyo mintaqalarida bu kasalliklarga chalinish darajasi turlicha.

Ma'lumotlarga ko'ra [8,12], parodont kasalliklari, kariesdan farqli o'laroq, erkaklarda ko'proq uchraydi. Parodont kasalliklarining epidemiologik o'rganilishi muhimdir. Bu nafaqat aholida kasallikning darajasini aniqlash, balki shu asosda stomatologik yordam ko'rsatish strategiyasini belgilash imkonini beradi. Parodont kasalliklari va tish-jag' tizimidagi funksional buzilishlarni o'rganishga bag'ishlangan epidemiologik tadqiqotlarning ahamiyati ko'plab mualliflar tomonidan ta'kidlab o'tilgan [16,18,]. So'nggi yillarda sanoatning turli sohalarida ishlovchi ishchilarning stomatologik kasalliklari bilan kasallanish xususiyatlari keng miqyosda o'rganilib, ularning yuqori darajada ekanligi qayd etilgan [8,12,16]. Shundan kelib chiqqan holda, qishloq sharoitida doimiy yashovchi fertil yoshdagi ayollar (19–49 yosh) stomatologik salomatligi, stomatologik ko'rik va respondentlar o'rtasida so'rov-intervyu usuli orqali stomatologik kasalliklar bo'yicha tibbiy bilim darajasini aniqlash yo'li bilan o'rganildi.

Tadqiqot ob'ekti: Bog'ot tumani – Xorazm viloyatining janubi-sharqiy qismida joylashgan bo'lib, g'arb va shimolda viloyatning Yangiariq va Xonqa tumanlari, sharqda Xazorasp tumani va janubda Turkmaniston bilan chegaradosh. Tuman hududida 11 ta qishloq fuqarolar yig'ini mavjud: Beshariq, Bog'ot, Dehqonbozor, Madaniyat, Nayman, Xitoy, Xo'jalik, Qizilravot, Qipchoq, Qorayantoq, Qo'ng'ir. Tumanning markazi – Bog'ot shaharchasi. Maydoni – 443 km². Aholisi – 172573 kishi. Ulardan 0–14 yoshdagilar – 51056 nafar, 15–17 yoshdagilar – 8017 nafar, ayollar – 87051 nafar. Tadqiqot davomida ulardan 45882 nafari fertil yoshdagi ayollar bo'lib, bu jami



ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ УРГАНЧ ФИЛИАЛИ
ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИ ТИББИЁТ ЖУРНАЛИ
1-ТОМ, 2-СОН. 2025

ayollarning 52% ini tashkil etdi. Tuman qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan agrar tuman hisoblanadi. Tadqiqotlar Bog'ot tumani Beshariq qishlog'iga qarashli Nurofshon va Ashxobod mahalla fuqarolar yig'inlariga qarashli qishloqlarda doimiy yashovchi fertil yoshdagi ayollar orasida olib borildi.

Klinik materiallar tasnifi: Parodont kasalliklari bilan kasallangan barcha o'rganilgan fertil yoshdagi ayollar (19–49 yosh) – tipik qishloq tumanlari bo'lgan Bog'ot va Yangibozor tumanlarida doimiy yashovchi ayollar (asosiy guruh) hamda Urganch shahrida doimiy yashovchi ayollar (taqqoslash guruhi) sifatida o'rganildi.

Jami:

Bog'ot tumanidan – 986 nafar

Yangibozor tumanidan – 933 nafar

Urganch shahridan – 855 nafar fertil yoshdagi ayollar tadqiqotga jalb etildi.

Shunga muvofiq:

Qishloq aholisi – 1919 nafar ($69,18 \pm 0,88\%$)

Shahar aholisi – 855 nafar ($30,82 \pm 0,88\%$)

O'rganilayotgan fertil yoshdagi ayollarning yosh bo'yicha taqsimlanishi ko'rsatkichlari

Xudud		19-28 yosh	29-38 yosh	39-49 yosh	Жами
Bogot tumani	м.т.	248	338	400	986
	%	25,15±1,38	34,28±1,51	40,57±1,56	100,0
Yangibozor tumani	м.т.	310	298	325	933
	%	33,23±1,54	31,94±1,53	34,83±1,56	100,0
Urganch shaxri	м.т.	268	276	311	855
	%	31,35±1,59	32,28±1,60	36,37±1,64	100,0
Jami		826	912	1036	2774

Tumanlar va shahar bo'yicha respondentlar soni o'zaro yaqin bo'lib, natijalarning ishonchliligi va vakillik darajasi (reprezentativligi) ta'minlandi. Ayollarning yosh bo'yicha taqsimoti jadvalda keltirildi. Olingan natijalar o'rganilgan fertil yoshdagi ayollar yosh guruhlari bo'yicha deyarli teng taqsimlanganini ko'rsatdi. Ayniqsa Yangibozor tumani va Urganch shahri bo'yicha bu holat aniq ko'zga tashlanadi. Bog'ot tumanida 19–28 yoshli ayollar soni 39–49 yoshli ayollarga nisbatan kamroq bo'lgani kuzatildi, ammo bu tasodifiy tanlov natijasi bo'lib, tadqiqotga to'sqinlik qiladigan darajada emas. Stomatologik salomatlikni aniqlashda ayollarning yoshi bilan bir qatorda, ularning hozirgi bandlik holati – ya'ni kasbi ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, ularni kasbi bo'yicha ham tahlil qilish uchun ajratib o'rganildi va bu natijalar jadvalda keltirildi. Fertil yoshdagi ayollar orasida parodont kasalliklarining kasblar bo'yicha taqsimoti shuni ko'rsatdiki, qishloq va shahar ayollari orasida katta tafovutlar yo'q. Bu holat umuman respublikaga xos milliy mentalitet bilan bog'liq bo'lib, stomatologik salomatlikka ta'sir qiluvchi tashqi xavf omillari aniqlanmadi. Shu bois, ushbu kasb sohalari bo'yicha mutlaq sonlar keltirilib, foizlar ko'rsatilmagan. Ammo, shunga qaramay, vaqtincha ishsizlar va uy bekalari sonining yuqoriligi e'tiborga molik jihat sifatida qayd etildi [12.13.14.].

Parodont kasalliklari, tish qattiq to'qimasi kasalliklari va boshqa stomatologik patologik holatlarning shakllanishi va rivojlanishida somatik kasalliklarning roli mavjud. Ushbu masalaga aniqlik kiritish maqsadida o'rganilgan reproduktiv yoshdagi ayollarning ilgari boshidan kechirgan kasalliklari ham o'rganildi. Parodont kasalliklari Bog'ot tumanida yashovchi o'rganilgan ayollar orasida jami 2486 ta patologik holat aniqlanib, bu barcha tekshirilgan ayollarning ($n = 986$) har biriga o'rtacha 2,52 tadan kasallik to'g'ri kelganini ko'rsatdi. Yangibozor tumani bo'yicha bu ko'rsatkich 933 nafar ayolda 2083 ta nosologik birlik bilan qayd etildi, bu esa o'rtacha 2,23 ta kasallik har bir tekshiruv ishtirokchisiga to'g'ri kelganini bildiradi. Urganch shahri bo'yicha esa jami 855 nafar



ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ УРГАНЧ ФИЛИАЛИ
ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИ ТИББИЁТ ЖУРНАЛИ
1-ТОМ, 2-СОН. 2025

ayolda 1603 ta kasallik qayd etilib, o'rtacha 1,87 taga teng bo'ldi. Ko'rinib turibdiki, qishloq tumanlarida yashovchi fertil yoshdagi ayollarda nosologik birliklar uchrash darajasi shaharda yashovchi xuddi shu toifadagi ayollarga nisbatan yuqoriroq (2,52 va 2,23 ta > 1,87 ta). Biroq, bu holatlar ayollar stomatologik salomatligiga bevosita xavf tug'dirmaydi, chunki ular og'iz bo'shlig'i holatiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shunga qaramay, bu holat ayollarning umumiy tibbiy holatini ko'rsatuvchi omil sifatida qayd etildi [12.13.14.16. Reproktiv yoshdagi ayollarni tibbiy tadqiqotlarga jalb qilish Jahon Tibbiyot Assambleyasining Xelsinki Deklaratsiyasi (Helsinki, 1964; so'nggi tahriri Seul, 1987) asosida amalga oshirildi.

Xulosa: Ushbu keltirilgan ma'lumotlar tadqiqotga jalb qilingan fertil yoshdagi (19–49 yosh) ayollarning soni, yashash joyi, yoshi, kasbi, boshidan kechirgan kasalliklari to'g'risida axborot beradi. Qishloq tumanlari va shahar sharoitida yashovchi ayollar orasidagi tafovutlar katta emasligini ko'rsatadi. Klinik materialni o'rganish jarayonida barcha tadqiqotlarning randomizatsiyalanganligi va guruhlarining bir-biriga reprezentativ ekanligiga ishonch hosil qilindi. Bu esa, o'z navbatida, olingan natijalar va chiqarilgan xulosalarning ishonchliligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Олимов С.Ш., Гаффаров С.А., Ахмадалиев Н.Н., Ахмедов А.Б. Влияние экологических факторов на состояние тканей пародонта у школьников. Журнал «Экология и развитие общества» Санкт-Петербург 2014г. 182-184 стр.
2. Олимов С.Ш., Бадриддинов Б.Б. Роль нормальной микрофлоры в развитии болезней пародонта у детей. // 89-я всероссийская научно-практическая конференция студентов и молодых ученых Казань. 2015 г. С 411
3. Олимов С.Ш., Microbial spectrum and local state of resistance Oral cavity of workers gas processing plantce. // “Стоматологик касалликларни даволашда ва профилактикасидаги долзарб муаммолар” илмий амалий конференция Бухоро 2016 34-бет.
4. Олимов С.Ш., Гаффаров С.А., Фазилова Г.Ф., Касимова Г.В., Анатомо-гистологическое строение тканей пародонта и его физиологические особенности. // Ўқув услубий қўлланма. Тошкент 2008. 18 бет.
5. Олимов С.Ш., Гаффаров С.А., Отабоев Ш.Т. Экологик барқарорлик, стоматология ва инсон саломатлиги. // Ўқув Қўлланма Тошкент 2014. 330 бет
6. Курязов А.К., Суванов К.Ж. Распространенность болезней пародонта и слизистой оболочки полости рта среди беременных, проживающих в различных экологических условиях // Бюллетень ассоциации врачей Узбекистана. – Ташкент. - 2011. - №1. – С. 78-82 .
7. Suvonov K.J., Adilov U.X., Kuryazov.A.K. Prevalence and risk factors of dental diseases in pregnant women living in different regions of Uzbekistan // European Journal of Molecular & Clinical Medicine. - USA. - 2020. - Vol. 07. Issue S-02, P. 2863-2870.
8. Курязов А.К., Олимов С.Ш. Фертил ёшидаги аёллар орасида стоматологик касалликлар аниқланиш даражаси // Тиббиёт ва инновациялар. – Тошкент. - 2023. - № 3(11). - 350-365 б.
9. Курязов А.К., Олимов С.Ш. Фертил ёшидаги аёлларда касби ва ёшига боғлиқ соматик саломатлигини баҳолаш натижалари // Тиббиётда янги кун. – Тошкент. - 2023. - №10(60). - 866-871 б. .
10. Kuryazov A.K., Olimov S.Sh. The prevalence of diseases among women of fertility age. // Journal of Advanced Zoology. - USA. - 2023. - Vol. 44. Issue S-2. P. 2394-2406 (Scopus).
11. Курязов А.К., Олимов С.Ш. Особенности возрастных изменений ортопедического статуса у женщин фертильного возраста, живущих в городской и сельской местностях // Тиббиёт ва инновациялар. – Тошкент. - 2023. - №4 (12). С. 335-346 .



ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ УРГАНЧ ФИЛИАЛИ
ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИ ТИББИЁТ ЖУРНАЛИ
1-ТОМ, 2-СОН. 2025

12.Курызов А.К., Олимов С.Ш. Фертил ёшидаги аёлларда пародонт касалликларини таркалишини ўзига хос хусусиятлари. // Биология ва тиббиёт муаммолари – Самарканд. - 2024. - №3 (154). - 138-141 б.

13.Курёзов А.К., Олимов С.Ш. Возрастные изменения ортопедического статуса у женщин фертильного возраста. // Биомедицина и практика. - Тошкент. - 2024. -№2. – С. -331-338.

14.Курызов А.К., Бадритдинова М.Н. Фертил ёшидаги аёллар стоматологик касалликлар профилактикаси услублари // Тиббиётда янги кун. – Тошкент. – 2024. - №9(71). - 312-319 б.

15.Курызов А.К., Суванов К.Ж. Лікування стоматологічних захворювань у вагітних в умовах екологічного неблагополуччя // Вісник наукових досліджень. – Украина. - 2010. - № 4. - С. 62-65.

16.Курызов А.К., Суванов К.Ж., Рузметов У.А. Особенности профилактики стоматологических заболеваний у беременных в условиях экологического неблагополучия // Проблемы биологии и медицины. – Самарканд. - 2010. - №3. - С. 42-45.

17. Құрызов Ш.А., Хабибова Н.Н. Тишларнинг понасимон нуқсони билан касалланган беморларда касалликнинг мажмуавий олдини олиш чоралари // Тиббиётда янги кун. – Тошкент. – 2023. - №6 (56). - 371-376 б.

18.Kuryazov Sh. A., Kuryazov A.K., Khabibova N. N. Balogʻat yoshidagi qizlarda stomatologik salomatlik klinik va tibbiy – ijtimoiy omillar tahlili . // Тиббиётда янги кун. – Тошкент. – 2025. - №5 (79). – 462-466 б.

